

OKC

№ 17 -LSX- sonli
Loyiha-smeta xujjatlari tuzish
SHARTNOMASI

24 avgust 2022 yil

Qarshi shahri

Qashqadaryo viloyat hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi nomidan (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi direktori A.Normo'minov bir tomondan va ustav asosida faoliyat ko'rsatayotgan «Qarshi tadqiqot konstruktsiya» MCHJ nomidan (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» (Bajaruvchi nomi) deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi raisi M.Abdugapparov ikkinchi tomondan, **“Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat muassasasi tashqi oqova suv tarmog'ini ta'mirlash”** bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash shartnomasini tuzdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

- 1.1. “Buyurtmachi” topshirig'iga asosan “Bajaruvchi” **“Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat muassasasi tashqi oqova suv tarmog'ini ta'mirlash”** bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. “Bajaruvchi” loyiha ishlarini “Korxonalar, bino va inshootlari qurilishiga loyiha-smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash” haqidagi SHNQ 1.03.01-03, “Qurilishda joriy shartnomaviy baholarni aniqlash tartibi” to'g'risidagi SHNQ 4.01.16-04 va loyihaga qo'yiladigan me'yoriy talablarni, qoida va qo'llanmalar asosida bajarilishini ta'minlaydi.
- 1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa talablarni bajarish loyihalash topshiriqnomasida ko'rsatiladi.
- 1.4. Ishlarning bajarilish muddati tanlov bayonnomasi asosida belgilanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.5. “Bajaruvchi” maxsus loyiha ishlariga yordamchi bajaruvchi tashkilotlar bilan qo'shimcha shartnoma tuzishga haqlidir. Qo'shimcha shartnomalarni tuzish “Bajaruvchi”ning zimmasiga yuklatilgan mazkur shartnomaning shartlarini bajarish javobgarligidan ozod etmaydi.
- 1.6. Xo'jalik shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

2. Tomonlarning majburiyatlari

3. a) “Bajaruvchi”ning majburiyatlari
4. 2.1. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi” tomonidan berilgan loyihalash topshiriqnomasi va arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi asosida loyiha ishlarini bajaradi;
5. 2.2. “Bajaruvchi” mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni “Buyurtmachi”ning ruxsatisiz uchinchi shaxsga berishga haqli emas.
6. 2.3 “Bajaruvchi” mazkur shartnoma bo'yicha Atrof muxitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyiha hujjatini tayyorlash ishlarini bajaradi;
7. 2.4. Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazadi;
8. 2.5. Topotasvir va giologiya ishlarini bajaradi;
9. 2.6. Loyiha ishlarini bajarilishini parallel ravishda ta'minlaydi;
10. 2.7. “Bajaruvchi” tomonidan tayyorlangan loyiha asosida hisoblangan smetadagi fizik ish hajmlar, material resurslar miqdori to'g'riligi (loyihaga mosligi) uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va oyma-oy bajarilgan ishlar to'g'risida “Buyurtmachi”ga kelishilgan jadval asosida hisobot topshirib turadi.
11. 2.8. VMning 2021 yil 20 maydagi 321-sonli qarori 3-ilovasiga asosan “Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to'g'risida Nizom” talabi asosida bajaruvchi tomonidan inshootda qurilish-montaj ishlarining loyiha yechimlariga muvofiqligi ustidan mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi.
12. b) “Buyurtmachi”ning majburiyatlari:
13. 2.9. “Bajaruvchi”ga ish hajmlarini bajarilishiga kerakli arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasini taqdim etadi;
14. 2.10. Bajarilgan loyiha ishlaridan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadda foydalanadi;

- 5.2.11. "Bajaruvchi" tomonidan bajarilayotgan loyiha ishlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kuzatib boradi, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi;
- 16.2.12. "Buyurtmachi" mablag' bilan ta'minlovchi tashkilotlarga bajarilgan loyiha ishlarining hajmi to'g'risida hisobotlarni o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

3. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" tomonidan bajariladigan ishlar tanlov (tender) savdosi natijasida aniqlangan va tanlov (tender) komissiyasining 2022 yil 19 avgustdagi 135943 -sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan qiymati barcha soliqlar, yig'ima va ajratmalarni (QQSni inobatga olgan holda) joriy narxlarda **10 477 440** (O'n million to'rt yuz yetmish yetti ming to'rt yuz qirq) so'mni tashkil etadi.
- 3.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni mazkur shartnoma bo'yicha oldindan 15 foiz miqdorida bo'nak (avans) mablag'i bilan ta'minlaydi. Belgilangan mablag'lar bilan ta'minlash "Buyurtmachi"ni shu maqsadlar uchun Moliyalashtiruvchi organlar tomonidan moliyalashtirilgandan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirishning qolgan qismi mazkur ishlar sifatli qilib bajarilib, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib borgach dalolatnomalar asosida qabul qilingandan keyin bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.
- 3.3. Mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan inshoot uchun mablag' ajratilmagan holatda "Buyurtmachi" bajarilgan ish uchun bajaruvchiga to'lovlarni shartnomada belgilangan muddatda amalga oshirish majburiyatini olmaydi va iqtisodiy sud oldiga moliyalashtirilmagan mablag' uchun javobgar bo'lmaydi.
- 3.4. "Bajaruvchi" tomonidan ishlab chiqilgan qurilishga sarflanadigan moddiy texnika resurslari miqdori va qurilish muddati uzil-kesil hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, ayrim hollar bundan mustasno, ya'ni:
- 3.4.1. Ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish qiymati va muddatini o'sishiga yoki shu parametrlardan biriga bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holati) sabab bo'lsa.
- 3.4.2. "Buyurtmachi" tomonidan ish hajmlariga o'zgartirish kiritilganda.
- 3.4.3. Ishlarni bajarish, xizmati ko'rsatish muddati bir yildan ortiq bo'lganda.
- 3.4.4. Loyiha-smeta bo'yicha hajmga o'zgartirish kiritilganda shartnoma qiymatiga o'zgartirish qo'shimcha kelishuv tuzish bilan yo'l qo'yiladi.
- 3.4.5. Asoslab berilgan holda, yuqorida qayd etilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rtasida qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

- 4.1. Bajarilgan ishlar ShNQ 1.03.01-03 va "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshiriq talablari asosida qabul qilinadi.
- 4.2. "Bajaruvchi" ishlarni bajarib bo'lgach, "Buyurtmachi"ga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 2 ta nusxada loyiha-smeta hujjatlari komplektini taqdim etadi.
- 4.3. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilganidek, topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarida bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va "Bajaruvchi"ga imzolangan yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.
- 4.4. Bajarilgan ishlarini topshirish-qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi jarayoni keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarni oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. "Buyurtmachi" ushbu holatda "Bajaruvchi"ga amalda bajarilgan loyiha ishining harajatlarini mazkur shartnomaning 3.3.2 va 3.3.4 bandlariga asosan amalga oshiradi.

5. Tomonlarning javobgarligi

- 5.1. To'lov talabnomasini asossiz ravishda to'la yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitoblarning boshqa shakllardagi ishlarga haq to'lashdan bosh tortganligi (G'aznachilik boshqarmasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv qo'yimaslik va xokozo) uchun, "Buyurtmachi" to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summasining 0,04 foiz

hajmida "Bajaruvchi"ga penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan oshmasligi kerak.

5.2. "Buyurtmachi" olgan majburiyatini buzganligi uchun mazkur shartnomaning 4.3 moddasiga asosan u "Bajaruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak.

5.3. "Bajaruvchi" ishlarini bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak. Penya to'lash shartnoma majburiyatini buzgan tomonni kechiktirib bajargan ishi yoki ko'rsatgan xizmati oqibatida keltirilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.4 "Bajaruvchi" shartnoma talablariga ko'ra mualliflik nazoratini lozim darajada olib bormaganligi aniqlansa shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorida jarima to'laydi.

5.5. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarida nuqsonlar (tayyorlangan smeta hujjatlaridagi ish hajmlarini loyihaga mos kelmasligi) aniqlansa "Bajaruvchi" kamchiliklarni o'z hisobidan to'g'rilanishini ta'minlaydi yoki taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlarida qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi, yetkazilgan zararlarni qoplab beradi.

5.6. Agar sodir bo'lishiga tomonlarning hech biri javob bermaydigan (fors-major) hollar yuzaga kelsa, tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga suyanadilar.

5.7. Agar bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar kerakli sifatga, texnik shartlarga va majburiyat shartlariga mos kelmasa, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarga haq to'lashdan bosh tortishga haqli. "Bajaruvchi"dan sifatga javob bermaydigan ish qiymatining 0,4 foizi penya undirishga haqli, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan so'mmani qaytarishni talab qilishga, hamda penya talab qilishga haqli.

Penya hisobi to'lov talabnomasi bank muassasasiga, loyiha hujjatlarining sifati, assortimenti va sifati lozim darajada bo'lmagan bajarilgan ishlar aniqlangan kundan boshlab bu haqida dalolatnoma tuzilganidan keyin 10 kundan kechikmay taqdim etilishi lozim. Penya hisobi to'lov talabnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan tarzda taqdim etilsa va "Bajaruvchi" penyani ixtiyoriy to'lashdan bosh tortsa penyani undirish belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

5.8. ShNQ 1.03.01-03ning 1.13 bandiga asosan inshootning loyiha-smeta hujjatlarida qabul qilingan texnik iqtisodiy yechimlar, fizik ish hajmlarining to'g'riligi va qurilish materiallari uchun qo'llaniladigan birlik narxlarining to'g'riligi va haqqoniyliigi uchun loyiha tashkiloti to'liq javob berishlari, agarda qurilish ishlariga tender savdolari o'tkazilgandan so'ng qurilish jarayonida loyiha hujjatlarida aniqlangan xato va kamchiliklar qiymati aniqlansa, ushbu kamchiliklarni to'g'rilash uchun ketadigan barcha xarajatlar loyiha tashkilotlari tomonidan to'liq qoplaniladi.

5.9. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining 24-35-moddalariga asosan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

5.10. Tomonlar o'rtasida nizolar va kelishmovchiliklar yuz bergan holatlarda, umumiy da'vo muddati (3 yil) hisobga olingan holda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinadi.

6. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, yuqumli kasalliklar tarqalishi va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan qismi uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda muddati uzaytiriladi.

2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlarini 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ishni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 2 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

8.1. Mazkur shartnomani tomonlar imzolanganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yil.

8.3. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

9. Nizolarni hal etish tartibi va huquqiy ekspertizasi

9.1. Shartnomaning mazmuni uni tuzishga tayyorlash jarayonida yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularning imzosiz yoki xulosasiz shartnoma tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.


9.2. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga kelgan bahslar qonunchilikda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan yoki, tomonlarning kelishuviga binoan hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. Tomonlarning rekvizitlari

"Buyurtmachi"	"Bajaruvchi"
<p>Viloyat hokimligi Injining kompaniyasi Manzili: Qarshi sh, O'zbekiston ovozi gazetasi 3-uy Tel: 227-16-56. 227-14-60, faks 227-19-82. sh/x*r 100021860104017092400075009</p> <p>INN 204 796 710 OKONX 69000 АТБ Ипотека банк Қашқадарё вилояти фили</p> <p>Direktor  A. Normo'minov</p>	<p>«Qarshi tadqiqot konstruktsiya» MCHJ Manzili: Qarshi sh, I.Karimov 219G uy Tel: 97-317-05-48; 97-290-66-02 X/R: 20208000304536558001 MFO: 00150 Bank: Milliy bank Qarshi shahar INN 206 677 073 OKED 71110 QQS kodi: 310010017778</p> <p>Pais:  M. Abdugapparov</p>

Huquqshunos xulosasi: Ushbu shartnoma O'ZR FK va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning normalari va tomonlar javobgarligi, nizolarni hal etish amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob beradi.

Bosh yuristkonsult:


(Imzo)

D. Kulnazarov



ISHLARNING KALENDAR REJASI

Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi topshirig'i bilan, "Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat muassasasi tashqi oqova suv tarmog'ini ta'mirlash" bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash.

2022 yil 24 avgustdagi
17 -LSX-sonli shartnomaga
1-ilova

№	Shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning va asosiy bosqichlarning ro'yxati	Bajarish muddati		Bosqichlarning hisob qiymati yig'indisi QQS bilan birga
		Boshlanishi	Yakunlanishi	
1	"Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat muassasasi tashqi oqova suv tarmog'ini ta'mirlash" bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash	2022 yil	2022 yil	10 477 440
Jami:				10 477 440

O'n million to'rt yuz yetmish yetti ming to'rt yuz qirg
(So'mma so'z bilan)

"BUYURTMACHI" nomidan

Direktor:



"BAJARUVCHI" nomidan

Rais:



2022 yil 24 avgustdagi
17 -LSX-sonli shartnomaga 2-ilova
“Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 18-
sonli ko’rish bo’yicha imkoniyati cheklangan
bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat
muassasasi tashqi oqova suv tarmog’ini
ta’mirlesh” bo’yicha loyiha-smeta xujjatlarini
tayyorlash

S M E T A S I

Buyurtmachi: Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi

Bajaruvchi: “Qarshi tadqiqot konstruktsiya” MChJ HJ

No	Tashkilot, qurilish inshootlari yoki ish turlarining tavsifi	Qurilish uchun loyiha (qidiruv) ishlari narxlari to’plamining qismi № bobi, jadvali bandi	Qiymatini hisoblash (axo)=c	Qiymati QQS bilan birga
1	2	3	4	5
1	“Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 18-sonli ko’rish bo’yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat muassasasi tashqi oqova suv tarmog’ini ta’mirlesh” bo’yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash	O’zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirining 2020 yil 19 avgustdagi 876-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan «Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to’g’risida»gi Nizom		10 477 440
JAMI				10 477 440

O’n million to’rt yuz yetmish yetti ming to’rt yuz qirq
(So’mma so’z bilan)

“Qarshi tadqiqot konstruktsiya” MChJ raisi:



M. Abdugapparov.

Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injining Kompaniyasi tanlov komissiyasining
BAYONNOMASI

« 24 » avgust 2022 yil

1.	NORMO'MINOV ABDUSAMAT BOBOQULOVICH	-	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injining Kompaniyasi direktori
2.	TURAYEV TOLMAS NORMUMINOVICH	-	Bo'lim boshlig'i
3.	VAFOYEVA NIGORA BOBONAZAROVNA	-	Bo'lim boshlig'i
4.	BOYMRIZAYEV VALIJON YULDASHEVICH	-	Bo'lim boshlig'i
5.	SHAXOBOV FARXOD ILXOMOVICH	-	Bosh muhandis

KUN TARTIBIDA:

Respublika tovar-xom ashyo birjasi (<https://etender.uzex.uz/>) ning elektron portalida eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha 19.08.2022 yildagi - 135943 sonli lot raqami bilan e'lon qilingan, Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasasining tashqi oqova suv tarmoqlarini ta'mirlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injining Kompaniyasi direktori, komissiya raisi A.NORMO'MINOV so'zga chiqib, tanlov natijalari bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha 2022-yil 19 avgustdagi № 135943-sonli lot raqami bilan e'longa qo'yilganligini, va tanlov loti bo'yicha xarid komissiyasi 19.08.2022 yildagi Xarid qilish bo'yicha tender bo'yicha xarid komissiyasining bayonnomasi Lot № 135943 g'olibni aniqladi:

- "Qarshi tadqiqot konstruktsiya" mas'uliyati cheklangan jamiyati va zahira loyihachi:


"Umid Ishonch loyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyati 19.08.2022 yildagi Xarid qilish bo'yicha tender bo'yicha xarid komissiyasining Lot № 135943-sonli bayonnomasi 2 ish kun muxokamaga qo'yildi. Ushbu 2 ish kuni muxokama davrida xech qanday ishtirokchi tashkilotlar tomonidan e'tirozlar bo'lmaganligi sababli tanlov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. 2022 yil 19 avgustdagi Lot № 135943-sonli bayonnomasi orqali "Qarshi tadqiqot konstruktsiya" MCHJ i g'olib deb topilsin.
Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasasining tashqi oqova suv tarmoqlarini ta'mirlash loyixasini tayyorlash bo'yicha " Qarshi tadqiqot konstruktsiya " mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan shartnoma tuzilsin.

Komissiya a'zolari:

A.NORMO'MINOV
F.SHAXOBOV
T.TURAYEV
N.VAFOYEVA
V.BOYMRIZAYEV



Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 135943 на приобретение Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasasining tashqi oqova suv tarmoqlarini ta'mirlash

Способ проведения электронный

Дата 19.08.2022

Время рассмотрения 19.08.2022 17:40

Конкурсная комиссия Вилоят хокимлиги инжиниринг компанияси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	NORMO'MINOV ABDUSAMAT BOBOQULOVICH	Direktor	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Секретарь комиссии	ABDULLAYEV DILSHOD RAXIMKULOVICH	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	TURAYEV TOLMAS NORMUMINOVICH	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	VAFOYEVA NIGORA BOBONAZAROVNA	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	BOYMIRZAYEV VALIJON YULDASHEVICH	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	SHAXOBOV FARXOD ILXOMOVICH	Bosh muhandis	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 19.08.2022 года № лота 135943.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по проектно - изыскательной работе
Подробное описание	Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasasining tashqi oqova suv tarmoqlarini ta'mirlash (Loyiha qidiruv, loyiha oldi va ishchi loyiha hujjatlarini tayyorlash)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	10 477 440.00
Стартовая сумма	10 477 440.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 I. Deklaratsiya II. Loyihachi tashkilotning tashkiliy strukturasi - 1 shakl (0-5 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: Tanlovda ishtirok etish buyurtmasida deklaratsiya bo'lmaganda taklif ko'rib chiqilmaydi va hujjatlarning 2 - yig'ma jildi ochilmasdan oferentga qaytariladi. Tashkiliy struktura

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	5	10450000	5	Экспертная		
"UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ	5	10450000	5	Экспертная		

Критерий №2 V. Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 (uch) yilda loyihalash ishlari bo'yicha bajargan ish tajribasi 4 - shakl (10-20 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: Tanlovda qo'yilgan ob'ektga o'xshash bo'lgan ob'ektlarni LSHini bajarish: yiliga N (N- oxirgi 3 (uch) yilda yiliga 1ta va undan ko'p) Bir yilda 10 tadan kam bo'lmagan ob'ektlarning LSHni tayyorlaganlik Ijtimoiy soha ob'ektlarini LSHini bajarilishi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	20	10450000	17	Экспертная		
"UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ	20	10450000	15	Экспертная		

Критерий №3 VIII. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot - 7 - shakl

Тип: Текстовое значение

Описание: VIII. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot - 7 -shakl

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	5	10450000	5	Экспертная		
"UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ	5	10450000	5	Экспертная		

Критерий №4 VII. Mavjud orgtexnika (kompyuter, printer, loyihalash dasturlari) va boshqalar ro'yhati, 6 - shakl (5-15 ball)**

Тип: Текстовое значение

Описание: Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan 5 ta dan kam bo'lmagan oxirgi 10 yillikda ishlab chiqarilgan kompyuterlar mavjudligi** (ijara shartnoma asosidagi loyiha texnikalarining ballari 50% kamaytiriladi) Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan orgtexnika vositalarini (printerlar , plotterlar, kserokopiya va skanerlar) mavjudligi** Loyihalash programmalari: - "Auto Cad"-2007-2020 - "Corel Draw X3-2005" - "3D MAX" - "Lira 9.4" - Smeta programmalari Mavjud xizmat mashinalari

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	15	10450000	10	Экспертная		
"UMID ISHONCH	15	10450000	8	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЛОУНА" МСҶ						

Критерий №5 VI. Loyihalash (Qurilish) maydonini koʻrganlik va loyihani oʻrganganlik toʻgʻrisida maʼlumotnoma 5 – shakl. (0-5 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: Qurilish maydonini koʻrganligi va oʻrganib chiqilganligi Muhandislik kommunikatsiyalarini oʻrganib chiqqanligi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	5	10450000	5	Экспертная		
"UMID ISHONCH LOUINA" МСҶ	5	10450000	4	Экспертная		

Критерий №6 III. Loyihachi tashkilot haqida umumiy maʼlumotlar. 2 - shakl (6-30 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: Ish staji 5 yildan kam boʻlmagan oliy maʼlumotli loyihalash mutaxassisligiga ega boʻlgan rahbarlardan 1 kishi mavjudligi. (tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi) Diplomi 5 yil ish stajiga ega 2 kishidan iborat injener-texnik hodimlarni mavjudligi. (GIP, GAP) (tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, diplom va mehnat daftarchasi nusxalari ilova qilinadi) Doimiy ravishda ishlovchi 10 ta malakaviy loyihachi mutaxassislar mavjudligi. (tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, diplom va mehnat daftarchasi nusxalari ilova qilinadi) Doimiy ravishda ishlovchi 10 yillik ish stajiga ega 4 malakaviy loyihachi mutaxassi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	30	10450000	18	Экспертная		
"UMID ISHONCH LOUINA" МСҶ	30	10450000	16	Экспертная		

Критерий №7 IV. Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 (uch) yillik moliyaviy koʻrsatgichlari, toʻlovga qodirligi va aylanma mablagʻlar bilan taʼminlanganligi toʻgʻrisida maʼlumot 3-shakl. (9-20 ball)*

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishlab chiqarish fondining qiymati 100 mln.soʻmgacha va undan koʻp Muddati oʻtgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emasligi (balans va moliyaviy natijalardan nusxa hamda byudjet va byudjetdan tashqari soliq, bank qarzdorligi boʻyicha maʼlumotnomalarning asl nusxasi). Oʻtgan yilda 20 mln.soʻm foydasi (soliq toʻlangunga qadar) mavjudligi Toʻlovga qodirlik koeffitsienti ijobiyligi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	20	10450000	11	Экспертная		
"UMID ISHONCH LOUINA" МСҶ	20	10450000	17	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	10 477 440.00	10 477 440.00 UZS	10 477 440.00	00.00	10 477 440.00	17.08.2022 12:03:27	29.92
"UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ	10 477 440.00	10 450 000.00 UZS	10 450 000.00	00.00	10 450 000.00	17.08.2022 19:04:50	30.00

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ	49.7	29.92	79.62
"UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ	49	30	79

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 135943 от 19.08.2022 года на приобретение Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasasining tashqi oqova suv tarmoqlarini ta'mirlash определила победителем:

КАРШИ ТАДКИКОТ КОНСТРУКЦИЯ МЧЖ
206677073

и резервный исполнитель: "UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ (306848141)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	NORMO'MINOV ABDUSAMAT BOBOQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	TURAYEV TOLMAS NORMUMINOVICH	Согласен	
Член комиссии	VAFOYEVA NIGORA BOBONAZAROVNA	Согласен	
Член комиссии	BOYMRZAYEV VALIJON YULDASHEVICH	Согласен	
Член комиссии	SHAXOBOV FARXOD ILXOMOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

4332900




Qashqadaryo viloyati hokimligi injiuring kompaniyasi buyurtmachiligida 2022 yilda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan ob'ektning MANZILLI DASTURI

(Viloyat hokimligining 2022 yil 19 iyundagi 606-I-O-Q/22-sonli qaroriga asosan)

mln.so'm

Inshootlar nomi va manzili	Qurilish boshlanishi va foydalanishga topshirish yili	Loyihaviy quvvati	Inshootning umumiy qiymati (shartnoma asosida) sh.j. buyurtmachi boshqa harajatlari	01.01.22 y. holatiga inshoot qoldiq qiymati sh.j. buyurtmachi boshqa harajatlari	01.01.22 y. holatiga yildan-yilga o'tuvchi inshootning (qayta hisoblash bilan) qoldiq qiymati sh.j. buyurtmachi boshqa harajatlari	01.01.22 y. holatiga inshootning moliyalashtirishning qoldig'i sh.j. buyurtmachi boshqa harajatlari	2022 yil uchun kapital qo'yilmalar limiti					2022 yilda foydalanishga topshiriladigan		01.01.23 y. holatiga yildan-yilga o'tuvchi inshootning (qayta hisoblash bilan) qoldiq qiymati sh.j. buyurtmachi boshqa harajatlari	01.01.23 y. holatiga yildan-yilga o'tuvchi inshootning moliyalashtirish qoldig'i sh.j. buyurtmachi boshqa harajatlari	Ekspertiza xulosasi raqami va sanasi	Tender (tanlov)lar natijasi bo'yicha bayonnomani raqami va sanasi	Qurilish pudrat tashkilot nomi
							Jami kapital qo'yilmalar	Qurilish-montaj ishlari	Jiboz	Buyurtmachi boshqa harajatlari		Muddat/quvvat	Asosiy fond so'mmasi					
										Jami	sh.j. buyurtmachi saqlash harajatlari							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Qarshi shahridagi 18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasasining tashqi oqova suv tarmoqlarini ta'mirlash	2022y	ob'ekt	*	*	*	*	480,000	466,208		13,792								Tanlov
JAMI:		ob'ekt					480,000	466,208		13,792								

Izoh: *) Inshootning qiymatiga loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng aniqlik kiritiladi.



Handwritten signature or mark.